

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YO‘LDOSHEVA IRODA IBODULLA QIZI**

**RAQAMLI BANK XIZMATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии  
(Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy  
(Doctor of Philosophy) on economical sciences**

**Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi**

Raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari .....3

**Йулдошева Ирода Ибодулла кизи**

Пути совершенствования цифровых банковских услуг .....31

**Yuldosheva Iroda Ibodulla kizi**

Ways to improve digital banking services .....61

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YO‘LDOSHEVA IRODA IBODULLA QIZI**

**RAQAMLI BANK XIZMATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi  
Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.3.PhD/Iqt4439-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Saidov Doniyor Abdullayevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raxmatov Xasan Utkirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axbort-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**T.Z. Teshabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**J.X. Ataniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**I.N. Qo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahonda tijorat banklarning xizmatlari va operatsiyalarini an'anaviy bank xizmatlaridan raqamli texnologiyaga asoslangan bank xizmatlariga o'tkazish banklar faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro amaliyotda "online banking"ga o'tish COVID-19 pandemiyasidan avval boshlangan bo'lishiga qaramasdan aynan pandemiya jarayonida raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishiga sezilarli darajada ta'sir qildi. Ma'lumotlarga ko'ra "Amerika Qo'shma Shtatlaridagi raqamli banklar 2024-yil II chorakni 244,10 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi foyda<sup>1</sup> bilan yakunlagan bo'lsa, bu ko'rsatkich Germaniya raqamli banklarida 64,11 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan"<sup>2</sup>. Jahon miqyosida kuzatilayotgan bu kabi tendensiyalar raqamli bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda tezkorligi va natijadorligini shuningdek, ularning investitsion jozibadorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida banklar va xalqaro tashkilotlar tomonidan raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq muhim fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish, moliyaviy mahsulotlar sifatini oshirish, past foiz stavkalarida kreditlar ajratish orqali mijozlar uchun qulaylik yaratish va shu bilan birga, banklarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda raqamli bank xizmatlari rentabelligini ta'minlash ham strategik vazifalardan biridir. Global miqyosda raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Shu boisdan, ilg'or raqamli texnologiyalar va innovatsion instrumentlardan foydalanish orqali bank mahsulotlarini modifikatsiya qilish, xizmatlarni rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirish hamda bank ekotizimlarini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda bank tizimi faoliyatining strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda raqamli bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish, jamiyatda bo'sh turgan pul mablag'larini qulay shartlarda masofadan turib jalb qilish, kredit resurslarini samarali joylashtirish, boshqarish va taqsimlash singari muammolarning ilmiy asoslari tadqiq etilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari amaliyotini rivojlantirish sohadagi dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. "Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda"<sup>3</sup>. Bank tizimi faoliyatida zamonaviy axborot-

---

<sup>1</sup> [www.bcg.com](http://www.bcg.com) The Boston Consulting Group. Global Retail Banking 2024

<sup>2</sup> [www.pwc.com/banking](http://www.pwc.com/banking) Retail Banking 2024. Evolution or Revolution?

<sup>3</sup> 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, xususan, masofaviy bank xizmatlari va kontaktsiz to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish banklarning raqamli xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat mijozlarga qulaylik yaratadi, balki bank faoliyatining samaradorligini ham sezilarli darajada oshiradi. Iqtisodiy taraqqiyotning raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan innovatsion yo'nalishda amalga oshirilishi barcha tarmoqlarda bosqichma-bosqich raqamli yechimlarni joriy etish jarayonini jadallashtirmoqda. Mazkur jarayonning yaqin istiqbolda yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishishi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4020-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-iyundagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 27-apreldagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot ishida mavzu yuzasidan qator ilmiy adabiyotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Raqamli bank xizmatlari, xususan, masofaviy xizmatlar hamda ularning resurs bazasi masalalari ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Y.Korchagin, I.Lavrushin, G.Beloglazova, A.Tavasiyeva, S.V.Galitskaya, A.Ivanov, P.Rouz, J.Sinki, V.Xabarov, N.Popova, Sh.Zokirov, Y.Vinokurova, N.Keshenkova, A.Goncharuk<sup>4</sup> kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida bu yo'nalishning turli jihatlariga e'tibor qaratganlar.

---

<sup>4</sup> Я.А. Корчагин. «Деньги, кредит». Москва: «Феникс», 2006. – 312 с. / И.О. Лаврушин. «Банковское дело: розничный бизнес». М.: «Кнорус», 2010. – 762 с. / Г.Н. Белоглазова, Л.П. Крошвская. «Банковское дело». Учебник для вузов. 2-е издание. П., 2008. – 400 с. / А.М. Тавасиева. «Дополнительные операции для клиентов». Москва: «ФиС», 2005. – 41 с. / С.В. Галицкая. «Деньги, кредит, банки». Полный курс. Москва: «Эксмо», 2008. – 336 с. / А.Н. Иванов. «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт». Москва: «ФиС», 2002. – 176 с. / Питер С. Роуз. «Банковский менеджмент». М.: «Дело», 1997. – 762 с. / Джозеф Синки. «Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг». М.: «Альпина Паблишер», 2019. – 1018 с. / В.А. Хабаров, Н.Ю. Попова. «Банковский маркетинг». Московская финансово-промышленная академия, 2005. – с. 15–23. / Ш.З. Закиров. «Развитие рынка банковских розничных услуг»: дис. канд. экон. наук: 08.00.10. Самарский гос. экономический университет, Самара, 2008. – 185 с. / Е.А. Винокурова. «Методическое обеспечение анализа кризисных состояний розничного бизнеса коммерческого

Shuningdek, sohaning ilmiy-amaliy muammolari bo'yicha bir qator mahalliy olimlar jumladan, Sh.Abdullayeva, T.Qoraliyev, A.Omonov, O.Aliqoriyev, D.Raxmonov, E.Xoshimov, N.Jumayev, H.Raxmatov, Z.Mamadiyarov, I.Kulliyev, Z.Xudoyberganova, K.Navro'zovalar tomonidan ham atroflicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>5</sup>.

Biroq mavjud tadqiqotlarda bank faoliyatiga oid umumiy masalalar keng yoritilgan bo'lsa-da, aynan raqamli bank xizmatlari va masofaviy moliyaviy operatsiyalardan foydalanish masalalari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Xususan, jahon amaliyotida mazkur yo'nalish jadal rivojlanayotganiga qaramasdan, respublikamiz sharoitida raqamli bank xizmatlari faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tijorat banklar tomonidan taqdim etilayotgan raqamli bank xizmatlarining hozirgi holatini tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:**

raqamli bank xizmatlarining mazmun-mohiyatini yoritish, ularning tarkibiy elementlarini tahlil qilish va mualliflik yondashuvlarini shakllantirish;

tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlarni ko'rsatish jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish;

raqamli bank tizimining resurs bazasi hamda bank xizmatlari bozorining

---

банка». / Jumayev N. «Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima berdi» (Why digital economy is needed and what it provides). — <https://review.uz>, 2020-y. / Н.В. Кешенкова. «Развитие розничных банковских услуг в условиях формирования инновационной экономики»: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.10. Моск. гос. ун-т экономики, статистики и информатики, Москва, 2013. – 27 с. / А.С. Гончарук. «Институционные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг»: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова. – Шахты, 2012. – 183 с. / Sh.Z. Abdullaeva. «Bank ishi». Darslik. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2017-y. – 535–540-betlar. / A.A. Omonov, M.T. Qoraliyev. «Banklarda buxgalteriya hisobi». Toshkent, 2014-y. – 118-b., 122-b. / F.I. Mirzaev. «Banklararo raqobat mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari». Monografiya. Toshkent: "Moliya", 2008-y. – 68–87-b. / O. Alikoriev. «Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari» mavzusidagi dissertatsiya. Toshkent, 2011-y. – 55–56-b. / Д.А. Рахмонов, Э.А. Хошимов, Э.Д. Алимардонов, Г.А. Бекмуродова, З.Т. Мамадияров. «Молия». / А.С. Гончарук. «Институционные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг»: дис. канд. экон. наук: 08.00.10

<sup>5</sup> К.Н.Наврүзова, О.А.Ортиков. Нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ва тўлов тизими Т: «Чўлпон», 2014 й, / Ш.З.Абдуллаева. «Банк иши» Дарслик. «ИҚТИСОД-МОЛИЯ» 2017-йил 535-540-бетлар. / А.А.Омонов., М.Т. Қоралиев. Банкларда бухгалтерия ҳисоби Т. 2014 й. 118-122 бетлар / Ф.И.Мирзаев. Банклараро рақобат: моҳияти, шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография Т:«Молия», 2008 й. 68-87 бетлар. / Д.А.Рахмонов, Э.А.Хошимов, Э.Д.Алимардонов, Г.А.Бекмуродова. З.Т.Мамадияров. Молиявий глобаллашув шароитида масофавий банк хизматларининг ривожланиши: назария ва амалиёт. Монография. Т.: «Иқтисодиёт», 2018 й., 49-60 б. / И.Куллиев. Банк менежменти ва маркетинги ўқув қўлланма. Т.: 2017 й. 100-117 бетлар.

mavjud holatini tadqiq etish;

mazkur xizmatlar bozorini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish;

raqamli bank xizmatlarining samaradorligini oshirish hamda ularni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining raqamli bank xizmatlari ko‘rsatish amaliyoti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Tijorat banklari tomonidan raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, baholash va emperik kuzatish tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individuallashtirish profilini shakllantirish orqali bank kreditlar ajratish jarayonini soddalashtirish asoslab berilgan;

tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning gamifikatsiya – motivatsion reyting tizimini yaratish orqali bank depozitlar salmog‘ini kamida 15 foizga oshirish ilmiy asoslangan;

raqamli bank xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bankning zamonaviy bank texnologiyalariga operatsion xarajatlarni har yili kamida 5 foizga oshirib borish orqali optimallashtirish asoslangan;

mijozlarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini real vaqt rejimida baholab ularga raqamli bank xizmatlari ko‘rsatuvchi va ma’lumotlar taqdim etuvchi Online-Location-Services (OLS) xizmatini joriy etish ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

banklararo raqobat sharoitida, raqamli banklarning kadrlar siyosatini samarali boshqarish, xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini ishdan ajralmagan holda doimiy ravishda oshirib borish taklif etilgan;

moliyaviy xizmatlar sohasida gamifikatsiya tamoyillaridan foydalanish, ya’ni o‘yin elementlari va rag‘batlantirish mexanizmlarini bank amaliyotiga tatbiq etish mijozlar faoliyatini faollashtirish va ularning sodiqligini oshirishda samarali vosita ekanligi ilmiy asoslangan;

bank xodimlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish va raqamli xizmatlar sifatini yuqori darajaga ko‘tarish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi amaliy mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning raqamli bank xizmatlari, ularni takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini o‘rganish, sohadagi xorijiy davlatlar, xorijiy kompaniyalar tadqiqotlarini o‘rganish va umumlashtirish, ekspert bahoalsh natijalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston



Respublikasi Markaziy banki, raqamli banklar ma'lumotlari shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tijorat banklarning resurs bazasini oshirish va amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy apparatni boyitishi bilan belgilanadi. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda ularning usullari va modellarini ishlab chiqishda, shuningdek bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot amaliy ahamiyati raqamli bank xizmatlarini yaratish va rivojlantirish, bank xizmatlarini bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish orqali innovatsion bank xizmatlarini tadbiq etish orqali belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individuallashtirish profilini shakllantirish orqali bank kreditlar ajratish jarayonini soddalashtirish taklifi AT "Aloqabank" tomonidan amaliyotga joriy etilgan (AT "Aloqabank"ning 2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bank tomonidan ajratilgan umumiy kreditlar hajmi 2024-yil yanvarga nisbatan 25,7 foizga oshib, 2025-yil yanvarda 12 944 mlrd. so'mni tashkil etgan;

tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning gamifikatsiya-motivatsion reyting tizimini yaratish orqali bank depozitlari salmog'ini kamida 15 foizga oshirish taklifi AT "Aloqabank" tomonidan amaliyotga joriy etilgan (AT "Aloqabank"ning 2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bank tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 2025-yil yanvarda 2024-yilning mos davriga nisbatan 49,7 foizga oshib, 13 815 mlrd. so'mni tashkil etgan;

raqamli bank xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bankning zamonaviy bank texnologiyalariga operatsion xarajatlarni har yili kamida 5 foizga oshirib borish orqali optimallashtirish taklifi AT "Aloqabank" tomonidan amaliyotga joriy etilgan (AT "Aloqabank"ning 2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bankning operatsion xarajatlari 2025-yil yanvarda 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,8 foizga qisqarib 119 mlrd. so'mni tashkil etgan;

mijozlarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini real vaqt rejimida baholab ularga raqamli bank xizmatlari ko'rsatuvchi va ma'lumotlar taqdim etuvchi Online-Location-Services (OLS) xizmatini joriy etish taklif AT "Aloqabank" tomonidan amaliyotga joriy etilgan (AT "Aloqabank"ning 2025-yil 6-avgustdagi 05-04/3720-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bankning raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil yanvarda 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga ortib 1 749 838 nafarni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 2 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo’yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatini o’z ichiga olgan holda 130 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bog’liqliligi ko’rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishining sinovdan o’tilganligi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Raqamli bank xizmatlari tarkibiy va tashkiliy-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda raqamli bank xizmatlarining nazariy asoslari, moliyaviy jihatlari, banklararo raqobatni ta’minlashda ularning o’rni va huquqiy asoslari hamda rivojlangan davlatlar tajribasi o’rganilgan va umumlashtirilgan.

Bank xizmatlari nazariyasi XX asrning 1960–1980-yillarida shakllanib, keyingi yillarda izchil rivojlandi. Mazkur davr mobaynida bank xizmatlari bozori va uning alohida segmentlarini tahlil qilishga bag’ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

Suchat Tungjitnob, Kitsuchart Pasupa va Boontawee Suntisrivaraporn o’z tadqiqotlarida mobil banking xizmatlarini quyidagicha tavsiflaydilar: “mobil ilovalar yordamida bank mijozlari istalgan vaqtda va istalgan joyda moliyaviy operatsiyalarni tezda amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, mobil banking qo’shimcha filiallar ochishga bo’lgan ehtiyojni kamaytirib, xarajatlarni optimallashtiradi. Banklar esa ushbu ilovalar orqali mijozlar haqidagi ma’lumotlarni yig’ish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladi”<sup>6</sup>.

D.Arner, J.Barberis va R.Buckley ilmiy tadqiqotlarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishda asosiy omil — bu qonunchilikning moslashuvchanligi va bank-fintex hamkorligi hamda davlat va markaziy banklar fintech ekotizimi uchun qulay muhit yaratishi kerak ekanini ta’kidlaydi<sup>7</sup>.

Syurix universiteti professori Thomas Puschmann esa Fintech — bu faqat texnologiya emas, balki bank xizmatlarini inson ehtiyojlariga moslashtirish

---

<sup>6</sup> Tungjitnob, S., Pasupa, K., & Suntisrivaraporn, B. (2020). SME User Classification from Click Feedback on a Mobile Banking Apps. In *Communications in Computer and Information Science, Neural Information Processing* (pp. 256–264). Springer.

<sup>7</sup> The REGTECH Book: The Financial Technology Handbook for Investors, Entrepreneurs and Visionaries in Regulation (mualliflar: Douglas W. Arner, János Barberis, Ross P. Buckley) — 2024.

falsafasidir, raqamli bank tizimida asosiy ustunlik — mijoz uchun qulaylik va tezkorlik, degan xulosaga kelgan<sup>8</sup>.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan S.Mbama raqamli bank elementlariga quyidagicha ta’rif bergan, “xizmat sifati, funksional sifat, hisoblangan qiymat, xizmat adaptatsiyasi, xizmatni tezlik, xodim-mijoz munosabatlari, brend ishonch, raqamli bank innovatsiyalari, hisoblangan foyda va hisoblangan risk, raqamli bankni foydalanish tajribasini ta’sirlovchi elementlar hisoblanadi”<sup>9</sup>.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan Sh.Abdullayeva masofaviy bank xizmatlari axborot-texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko’rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg’or firmalar va tijorat banklarini bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko’rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e’tibor qaratgan<sup>10</sup>.

A.Abrorovning ta’kidlashicha, bank tizimida raqamli xizmatlarni joriy etishda asosiy muammo – bu infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va kadrlar tayyorgarligidir. Shuningdek, u raqamli bankchilikni rivojlantirishda infratuzilma va kadrlar siyosatini eng muhim yo’nalish sifatida belgilaydi<sup>11</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagi mualliflik ta’rifini shakllantirdik: raqamli bank xizmatlari – bu mijozlarga bank xizmatlarini onlayn yoki mobil ilovalar orqali, jismoniy va yuridik shaxslar bank filiallariga tashrif buyurmasdan IT-texnologiyalardan foydalangan holda, unifikatsiyalashgan, tartibga solingan va standartlashgan bank takliflarining yig’indisiga aytiladi.

Bugungi kundagi iqtisodiyotimizning o’sib borishi sharoitidagi bank tizimimizning asosiy maqsadi foyda olishligini inobatga olsak, banklarimiz oldida resurs bazasining miqdorini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash eng dolzarb masalalardan bo’lib turibdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonida “bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirishda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish ko‘zda tutilgan”.

Hozir yurtimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, tegishli qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, nizomlar va qo‘shimcha normativ hujjatlar bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan turli shartnomalar raqamli bank xizmatlari uchun huquqiy asos vazifasini o‘tamoqda. Jumladan, O‘zbekiston

---

<sup>8</sup> Financial System 2030: Digitalization, Nation States and (De-)Regulation as Drivers of Change (muallif: Thomas Puschmann va H.S.H. Prince Michael of Liechtenstein) — 2024.

<sup>9</sup> “Digital banking, customer experience and bank financial performance: UK customers’ perceptions” Cajetan I. Mbama va Patrick O. Ezepue. International Journal of Bank Marketing, 36 (2), 230–255. 10.1108/IJBM-11-2016 0181.

<sup>10</sup> Sh. Abdullayeva. “O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari”. Moliya va bank ishi, 8(4), 2022.

<sup>11</sup> Abrorov A. (2022). Ўзбекистонда рақамли банкларни ривожлантириш истикболлари. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 22–30. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss5/a3](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a3)

Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasida bank tizimini O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqarishi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida “Bosh maqsadi va asosiy vazifalari” nomi ostida Markaziy bankning asosiy vazifalari qatorida hisob-kitoblar uchun samarali tizimni shakllantirish vazifasi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasida bank tomonidan amalga oshiriladigan barcha xizmatlar bank aksiyadorlari hamda bank mijozlariga teng va bir xil sharoitlarda taqdim etilishi belgilangan. Shu bilan birga, Qonunning 38-moddasida xizmat vazifasini bajarish jarayonida bank axborotiga ega bo‘lgan shaxslarning xizmat sirlarini oshkor etgan taqdirda qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.

“Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunga asosan esa, bank xizmatlari barcha manfaatdor hamda manfaatdor bo‘lmagan shaxslarga teng shartlar asosida taqdim qilinishi hamda bank bilan mijoz o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar haqida ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmasligi alohida qayd qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari ham raqamli bank xizmatlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari hisoblanadi.


Ayniqsa, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi”da zamonaviy axborot texnologiyalarini faol joriy qilish orqali masofaviy bank xizmatlarini, xususan, kontaktsiz to‘lovlarning soni va qamrovini oshirish, avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiya va kredit konveyeridan keng foydalanish, bank axborot tizimlari va ma’lumotlarining xavfsizligini kuchaytirish hamda bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalar (fintex, marketpleys, raqamli bank) joriy etilishi kabi vazifalar belgilanganligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Bank xizmatlarini faqatgina telefon orqali taqdim etish g‘oyasini birinchi bo‘lib 1989-yilda ingliz banki First Direct ilgari surgan. Bu tarixiy hodisa sifatida e’tiborga loyiq, chunki First Direct an’anaviy filiallarga ega bo‘lmagan ilk bank hisoblanadi. U o‘z mijozlariga faqat elektron aloqa kanallari orqali xizmat ko‘rsatish konsepsiyasini joriy etgan va hozirgi kunda ham masofaviy bank xizmatlari bo‘yicha samarali faoliyat yuritishda davom etmoqda.

1990-yillarga kelib AQShda telefon orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga asos solindi. Bu borada kashfiyotlardan biri North Carolina National Bank bo‘lib, u 1990-yilda o‘z mijozlariga telefon orqali 30 dan ortiq bank xizmatlarini taqdim eta boshladi. Ushbu tizimni qo‘llab-quvvatlash uchun katta miqdorda Call-sentrlar tashkil etildi va keyinchalik ularning samaradorligi oshirilgan holda operatorlar soni optimallashtirildi. 1990-yilda bu tizim kuniga qariyb 200 mingta qo‘ng‘iroqni qabul qilar edi.

Butun dunyo bo‘ylab raqamli bank xizmatlari ko‘rsatish hajmi va sifati yildan-yilga oshib bormoqda. Bu jarayon, avvalo, axborot texnologiyalarining

jadal rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalar bank tizimini tubdan o‘zgartirib, mijozlarga qulay, tezkor va xavfsiz xizmatlardan foydalanish imkonini bermoqda (1-rasm).



**1-rasm. Hududlar bo'yicha banklarda raqamli bank xizmatlarining ahamiyati, (2024-yil holatiga)<sup>12</sup>**

1-rasmda Pricewaterhouse Coopers xalqaro auditorlik tashkiloti tadqiqotiga ko'ra, Shimoliy Amerika banklarining 48 foizi, Yevropa banklarining 30 foizi, Osiyo tinch okeani davlatlari bankirlarining 14 foizi, bozor iqtisodiyoti endi rivojlanib kelayotgan va Lotin Amerika mamlakatlaridagi 4 foiz banklar IT texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli bank xizmatlarini taklif etmoqda.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda raqamli bank xizmatlar bozorining istiqboli quyidagilar bilan asoslanadi:

1. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ularning bank faoliyatiga joriy etilishi bir vaqtning o'zida bir nechta xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratib, bank va mijozlar o'rtasidagi masofani qisqartiradi, mijozlarning vaqtini tejaydi hamda banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Mijozlarni bank xizmatlari sifatiga bo'lgan talabining oshishi va banklar o'rtasida bank xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha raqobatning kuchayishi.

3. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishida jismoniy shaxslarning istalgan joyda va xohlagan vaqtda moliyaviy opeartsiyalarni amalga oshirishga bo'lgan

<sup>12</sup> [ww/pwc.com/banking](https://www.pwc.com/banking). Retail banking 2023. Evolution og Revolution?

ehtiyoji, shuningdek, yuridik shaxslarning o'z operatsiyalarini narxini kamaytirish orqali daromad hajmining oshirilishi ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Raqamli bank xizmatlaridan foydalangan holda banklar omonatlarini sezilarli darajada oshirmoqda, shu bilan birga kredit olish darajasi va qiymati sezilarli darajada oshmoqda, banklarning likvidlilik holati yaxshilanmoqda.

Yevropa mamlakatlarida raqamli bank xizmatlari bozori rivojlanishining asosiy tendensiyasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

ko'p tarmoqlar orqali jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish strategiyasining qo'llanilishi;

mijozlarga alohida xizmat ko'rsatishdan, kompleks xizmat ko'rsatishga o'tish;

mijozlarga xizmat ko'rsatishning standart yuzma-yuz aloqaga asoslangan "mijoz-klerk" ko'rinishidan, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turiga o'tish;

bank xizmatlari yo'nalishlari kengayishi va sifatining oshishi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muhitning bir qator obyektiv xususiyatlariga, birinchi navbatda, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi va bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog'liq.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **"Raqamli bank xizmatlarining amaliyotdagi holati va tahlili"** deb nomlanib, mazkur amaliyotning zamonaviy holati, unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan va mavjud tendensiyalar aniqlangan.


Oxirgi yillarda Markaziy bank tomonidan bank tizimi faoliyatida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini maqbul darajada bo'lishini ta'minlash hamda tashqi iqtisodiy jarayonlar orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning salbiy ta'sirlarini yumshatish va banklar bardoshlilikini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda, tijorat banklari faoliyati doimiy ravishda turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazilib kelgusida ularning kapitali va likvidligiga bo'lgan xatarlarni kamaytirish choralari ko'rib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-267-son qaroriga muvofiq "Ijtimoiy karta" tizimini joriy etish doirasida bank tizimiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish borasida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari va to'lov tizimi operatorlari bilan birgalikda muayyan ishlar amalga oshirildi.

Raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirish bevosita naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida naqd pul aylanmasini qisqartirib, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Aholi qo'lida elektron pullar va raqamli to'lov vositalari (plastik kartalar, mobil ilovalar, elektron hamyonlar va QR-kodli to'lov tizimlari) qancha ko'p bo'lsa, online bank xizmatlaridan foydalanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki bu tizimlar orqali to'lovlar tez, xavfsiz va qulay tarzda amalga oshiriladi.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko‘lamining oshib borayotganligi, o‘z navbatida, bank kartalariga bo‘lgan talabning ortishiga bevosita sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda mijozlar ko‘plab moliyaviy operatsiyalarni – to‘lovlar, pul o‘tkazmalari, xaridlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni – internet yoki mobil ilovalar orqali masofadan turib amalga oshirish imkoniga ega. Bunday qulayliklardan foydalanish uchun esa har bir foydalanuvchida bank karta bo‘lishi zarur (2-rasm).



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni<sup>13</sup>**

2-rasmda, 2024-yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 34 foizga o‘tib, 62,0 mln donaga yetdi. Aholiga respublika va xorijiy to‘lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi kobeydjing bank kartalari soni 2023-yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga oshib, 4,5 mln donaga yetdi.


2024-yilda 426 mingta to‘lov terminallari orqali qabul qilingan to‘lovlar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshib, 326,7 trln so‘mni tashkil etdi.

Raqamli banklarning asosiy mijozlari jismoniy shaxslar bo‘lganligi bois banklar barqaror resursni faqat jismoniy shaxslarning o‘zlaridan emas, balki yuridik mijozlardan ham jalb qilishni yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu maqsadda raqamli banklar depozitning turlari va jozibadorligini oshirishlari zarur, natijada barqaror resurs hamda mijozlar sonini oshirishga erisha oladilar.

Kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar salmog‘ining pasayib borishi bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Avvalo, bu holat Markaziy bank tomonidan ehtiyotkor valyuta siyosati olib borilayotganligining amaliy natijasidir. So‘nggi yillarda Markaziy bank ichki moliya bozorida valyuta barqarorligini saqlash, ortiqcha valyuta risklarini kamaytirish va milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

<sup>13</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/561487/> - markaziy bank sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining kreditga bo‘lgan talabini qondirish va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta‘minlash maqsadlariga 2024-yilda 287 trln so‘m yoki 2023-yilga nisbatan 14,3 foizga ko‘p kreditlar ajratildi. Mazkur ajratilgan kreditlarning milliy valyutadagi qismi 2023-yilga nisbatan 11,4 foizga oshib 193 trln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, xorijiy valyutadagi qismi 20,6 foizga oshib 94 trln so‘mni tashkil qildi (3-rasm).



**3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ajratilgan va so‘ndirilgan kreditlar dinamikasi<sup>14</sup>(trln so‘m)**

3-rasmda kreditlarning qaytuvchanlik darajasi 2023-yilda 74% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilda bu ko‘rsatkich qariyb 3%ga oshib 77% tashkil etgan. 2024-yilda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit qo‘yilmalari 10,2 foizga o‘sib 355,6 trln so‘mni, aholiga ajratilgan kredit qo‘yilmalari 2023-yilga nisbatan 19,5 foizga ko‘payib, 177,5 trln so‘mni tashkil etdi.

Aholining kredit qo‘yilmalari tarkibida mikroqarzlar 1,7 barobarga oshib, 42,4 trln so‘mni, ipoteka kreditlari 16,5 foizga oshib, 67,7 trln so‘mni va boshqa kreditlar 2,3 foizga oshib, 67,4 trln so‘mni tashkil etdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini oshirish orqali o‘z faoliyatini diversifikatsiya qilib bormoqdalar.

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individuallashtirish profilini shakllantirish orqali bank kreditlar ajratish jarayonini soddalashtirish va takomillashtirishga erishilgan. Raqamli bank xizmatlari orqali mijozlarning individuallashtirilgan profillarini shakllantirish – bank kreditlash jarayonining


<sup>14</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/561487/> - markaziy bank sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



an'anaviy murakkab bosqichlarini avtomatlashtirish, tavakkalchiliklarni kamaytirish va kredit mahsulotlarini shaxsiylashtirish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, banklar uchun nafaqat texnologik ustunlik, balki mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli aloqani yo'lga qo'yishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Ushbu model quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi (4-rasm).

1. Foydalanuvchi (mijoz) – kredit olishni istagan shaxs.
2. Kredit Platformasi – kredit so'rovlarini qabul qiladi, tahlil qiladi va qaror qabul qiladi.
3. Ma'lumot manbalari – bank hisobi, kredit tarixi, ish haqi, xaridlar va boshqa moliyaviy ma'lumotlar. Platforma mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash uchun turli manbalardan ma'lumot yig'adi.
4. AI & Risk tahlili moduli – shaxsiylashtirilgan kredit reytingini hisoblab, qaror qabul qilishga yordam beradi.
5. Kredit turi va shartlari – foydalanuvchi uchun mos keluvchi foiz stavkasi, muddat va shartlarni aniqlaydi.
6. Bank va moliyaviy tashkilotlar – kredit mablag'larini taqdim etadigan tomon.
7. To'lov monitoringi va xavfsizlik – kredit to'lovlarini nazorat qiladi va xavfsizlikni ta'minlaydi.



**4-rasm. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlarning individual profilini shakllantirish modeli<sup>15</sup>**

Mijoz profili — bu bank mijozlarining demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va xulq-atvor ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan muhim tahliliy ma'lumotlar

<sup>15</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

to'plamidir. Bank tizimida mijozlar profillarini chuqur o'rganish va tahlil qilish strategik rivojlanish rejasini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bank mijozlarining raqamli bank xizmatlaridan foydalanishga undovchi va ularning risk darajasi bo'yicha guruhlash o'z navbatida mijozlarning individual profilini yaratishni talab qiladi. Individuallashtirilgan profil orqali jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berish jarayoni soddalashtirilganligi sababli raqamli bank xizmatlaridan kreditlar ajratish yildan yilga oshib bormoqda (1-jadval).

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida jami banklar va raqamli banklar tomonidan berilgan kreditlari hajmi, (mlrd so'mda)<sup>16</sup>**

Bank nomi	01.12.2021			01.12.2022			01.12.2023			01.12.2024			2024-yilda 2023-yilga nisbatan kreditlarning oʻsish dinamikasi
	Jami kreditlar	Shundan		Jami kreditlar	Shundan		Jami kreditlar	Shundan		Jami kreditlar	Shundan		
		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	
Jami banklar	300 459	61 816	238 644	375 297	94 071	281 225	397 637	105 189	292 448	515 641	169 715	345 926	29,6 %
Anor bank	189	156	33	1 943	1 805	137	2 259	2 067	192	6 096	4 712	1 384	169,8 %
TBC bank	83	83	0	1 200	1 144	56	1 753	1 662	91	6 093	5 726	367	247,5 %
AVO bank	54	2	52	6	0,5	6	1	1	0	212	200	12	212 %
Oʻzmilliy-bank	67 668	5 608	62 060	80 476	7 405	73 070	93 536	11 811	81 725	105 369	17 294	88 075	12,6 %
Oʻzsanoat-qurilishbank	40 347	4 112	36 236	42 893	4 280	38 613	55 345	7 791	47 554	62 980	9 615	53 365	13,7 %
Agrobank	29 386	5 039	24 346	36 548	5 682	30 866	53 443	10 265	43 179	59 995	8 653	51 342	12,2 %
Xalq banki	21 348	8 109	13 239	19 073	7 184	11 890	23 401	14 072	9 329	28 928	19 747	9 180	23,6 %
Qishloq qurilish bank	14 937	7 878	7 059	18 706	9 665	9 041	22 174	10 693	11 482	22 456	11 132	11 324	1,2 %
Mikrokreditbank	10 334	3 102	7 232	11 313	3 355	7 958	14 197	5 220	8 977	16 945	6 847	10 098	19,3 %
Turon bank	7 474	967	6 507	8 557	1 457	7 100	10 903	1 793	9 110	12 463	2 328	10 135	14,3 %
Aloqa bank	6 306	1 091	5 215	8 198	1 631	6 567	10 881	3 327	7 553	11 687	3 870	7 816	7,4 %

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, so'nggi 4 yillikda raqamli banklarning kreditlari mos ravishda o'sish tendensiyasiga ega, faqatgina AVO bankdan tashqari. AVO bankda esa yildan yilga kamayish holati kuzatilgan, ammo 2024-yilda yirik o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Raqamli bank xizmatlaridan ko'proq jismoniy shaxslar foydalanganini uchun jami berilgan kreditlarning salmog'ida jismoniy shaxslarning ulushi yuqori. 2023-yilda Anor bank 2259 mlrd so'm kredit ajratgan bo'lsa, qariyb shundan 91% jismoniy shaxslarga tegishli. AVO bank esa 2023-yilda jismoniy shaxslar uchun 1 mlrd so'm kredit ajratgan. TBC bankda 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 14 barobar ko'p kredit ajratganligini ko'rish mumkin. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 1200 mlrd so'm bo'lgan va 2021-yilda 83 mlrd so'm qayd etilgan.

<sup>16</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/561487/> - markaziy bank sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Gamifikatsiya, ya'ni mijozlarga motivatsion o'yinlar taklif qilish hamda reyting tizimini yaratish orqali bank depozitlarining salmog'ini oshirib jamiyatda bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilib, jismoniy va yuridik shaxslarning investitsiyalarini to'g'ri yo'naltirish orqali bankning depozit bazasini oshirishga qaratilgan operatsiya hisoblanadi. Bank bunda tranzaksiyalar tahlili orqali depozit xizmatlarini individuallashtirish va investitsion jozibadorligini oshirib foydalanuvchilarni jamg'arma qilishga undashga bor e'tiborni qaratish talab qilinadi. "Fincastle" deb nomlangan g'oya asosida AT "Aloqabank" yuqori reytinga ega bo'lgan mijozlarga maxsus chegirmalar yoki bonuslarga ega bo'lish orqali bank o'z mijozlariga motivatsiya beradi. Quyidagi tahlillar asosida mijozlar depozitlarini oshirish va mukofotlar yutib olish imkoniyati mavjud, ya'ni:


har bir mijoz "Fincastle" qurish uchun depozit hisobvarag'ini doimiy tarzda oshirib borishlari talab qilinadi;

mijozlarga oylik yoki haftalik turli xildagi missiyalar beriladi, masalan, ma'lum miqdorda depozit kiritish yoki ma'lum muddat davomida hisobni o'zgartirmaslik;

missiyalarni muvaffaqiyatli bajargan mijozlar o'z "Fincastle"ni rivojlantirish uchun maxsus resurslar yoki virtual mukofotlarga ega bo'ladilar;

"fincastle"ni boshqalarga taklif etgan mijozlarga maxsus bonuslar taklif qilinadi.

Ta'kidlash joizki, banklarning depozit bazasi mustahkamligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida bank depozitlari tarkibidagi barqaror resurslarning ulushi yuqori ekanligidir. Bizga ma'lumki, raqamli banklarning depozit bazasi transaksion depozitlar, muddatli va jamg'arma depozitlarini o'z ichiga oladi. Banklarning depozit bazasi tarkibini sinchiklab o'rganish va puxta tahlil qilish juda muhim ahamiyatga egadir (5-rasm).



**5-rasm. O'zbekiston Respublikasida Raqamli banklarning depozitlari hajmi, (mlrd so'mda)<sup>17</sup>**

<sup>17</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/561487/> - markaziy bank sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

5-rasmda Anor bankning depozitlari qolgan 2 ta raqamli bankning depozitlaridan ulushi jihatidan ko‘proq va yildan yilga o‘sib borgan. Anor bank depoziti 2021-yilda 518 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 3823 mlrd so‘m depozit jalb qilingan, 2024-yilda esa 6980 mlrd so‘m depozit jalb etgan. TBC bankda esa 2021-yilda 314 mlrd so‘m depozit jalb qilingan bo‘lsa 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich qariyb 6,5 barobarga o‘sib 2349 mlrd so‘mni tashkil qilgan. AVO bankda esa 2022-yilda so‘nggi 3 yillikdagi eng past ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lib 0,5 mlrd so‘m jalb qilingan. Eng yuqori ko‘rsatkich esa 2024-yilda bo‘lib 15 mlrd so‘m jalb qilingan. Ammo, qolgan 2 ta bankka nisbatan AVO bankda depozit jalb qilish salmog‘i past ko‘rsatkichga ega.

Raqamli banklar depozitlari, mijozlar tomonidan banklarga yo‘naltirilgan mablag‘larni ifodalaydi. Bu mablag‘lar, belgilangan muddatlar bo‘yicha bank tomonidan qabul qilingan va uning ustidan foyda olish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Raqamli banklarning uzoq muddatli barqaror resurs miqdorini oshirishlari zarur (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining depozitlarini solishtirma dinamikasi, (mlrd so‘mda)<sup>18</sup>

Bank nomi	01.12.2021			01.12.2022			01.12.2023			01.12.2024			2024-yilda 2023-yilga nisbatan depozitlar-ning oʻsish dinamikasi
	Jami depozitlar	Shundan		Jami depozitlar	Shundan		Jami depozitlar	Shundan		Jami depozitlar	Shundan		
		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	
Jami banklar	134 406	32 930	101 475	206 759	54 467	152 292	221 335	77 175	144 160	286 947	106 465	180 483	22,8%
Anor bank	518	289	229	2 685	1 549	1 137	3 823	2 633	1 190	6 980	4 797	2 183	82,6 %
TBC bank	314	314	0,04	1 158	1 142	16	2 349	2 290	59	4 016	3 719	298	70,9 %
AVO bank	2	0,2	1,8	0,5	0,3	0,2	7	0,1	6,9	15	1	14	114,2 %
Oʻzmilliybank	20 398	5 132	15 266	42 983	7 225	35 758	29 929	9 224	20 705	36 953	11 461	25 492	23 %
Oʻzsanoat-qurilishbank	11 011	2 968	8 043	13 414	3 460	9 954	14 382	4 231	10 151	17 985	5 498	12 487	25 %
Agrobank	11 194	3 366	7 828	11 892	4 318	7 575	14 388	6 399	7 989	19 180	8 406	10 774	33,3 %
Xalq banki	11 551	2 140	9 411	12 973	2 662	10 31	16 445	3 467	12 978	23 125	4 137	18 988	40,6 %
Qishloq qurilish bank	5 997	990	5 007	8 459	1 423	7 036	9 303	1 735	7 568	10 772	1 834	8 938	15,7 %
Mikrokredit-bank	2 976	702	2 274	4 551	1 122	3 429	6 262	1 607	4 656	7 044	2 245	4 799	12,4 %
Turon bank	2 541	1 041	1 500	3 151	1 134	2 017	3 640	1 467	2 173	5 188	1 792	3 396	42,5 %
Aloqa bank	5 616	749	4 868	6 935	1 438	5 498	8 558	2 891	5 667	11 732	4 353	7 379	37 %

<sup>18</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/561487/> – markaziy bank sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2-jadvalda Anor bank oxirgi to‘rt yillikda umumiy depozitlari miqdorini 7,4 barobarga oshirishga, yani 518 mlrd so‘mdan 6980 mlrd so‘mga erishgan bo‘lsa, jismoniy shaxslardan jalb qilingan depozitlar miqdori 9,1 barobarga oshib jami depozit tarkibida qariyb 69 foizni tashkil etmoqda. Xuddi shu davr mobaynida TBC bank depozitlar miqdorini 7,5 barobarga yetkazgan, ya‘ni 314 mlrd so‘mdan 4016 mlrd so‘mga yetkazgan, jismoniy shaxslardan jalb qilingan depozitlar miqdori esa 7,3 barobarga oshib jami depozit tarkibida qariyb 97,5 foizni tashkil etmoqda. AVO bankda esa depozit bazasi zo‘r emas. 2023-yilda 7 mlrd so‘m depozit jalb qilingan bo‘lsa, shundan 6,9 mlrd so‘m depozit yuridik shaxslarga tegishli. Anor bank, TBC va AVO banklarning depozitlari miqdori jami banklar depozitlari miqdorining 2023-yil 1-oktabr holatiga 2,8 foizni tashkil qilmoqda, bunda jismoniy shaxslar raqamli banklarga qo‘ygan depozitlar ulushi 6,4 foizni tashkil etmoqda. Ushbu holat banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jamg‘arma depozitlarga jalb qilish amaliyoti yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Respublikamizda mazkur holat bo‘yicha qilinadigan ishlar talayginaligi ko‘rinib qolmoqda.

